XALQ DEPUTATLARI QUMQO‘RG‘ON TUMANI KENGASHINING

Q A R O R I

2025-yil 30-dekabr VII-14-139-8-114-K/25 Qumqo‘rg‘on tumani

Qumqo‘rg‘on tumanining 2026 yilgi mahalliy budjetini tasdiqlash to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonunining 6, 24-moddalari, Budjet kodeksining 27, 99-moddalari, “2026 yil uchun O‘zbekiston Respublikasining Davlat budjeti to‘g‘risida”gi 2025 yil 25 dekabrdagi O‘RQ-1105-son Qonuniga va xalq deputatlari Surxondaryo viloyat Kengashining 2025-yil 26-dekabrdagi VII-17-173-8-0-K/25-son qaroriga muvofiq hamda Surxondaryo viloyati Iqtisodiyot va moliya bosh boshqarmasining 2025 yil 26 dekabrdagi 22-13-04/135-sonli xatini inobatga olib, xalq deputatlari Qumqo‘rg‘on tumani Kengashi

QAROR QILADI:

1. O‘zbekiston Respublikasining “2026 yil uchun O‘zbekiston Respublikasining Davlat budjeti to‘g‘risida”gi Qonuni hamda xalq deputatlari Surxondaryo viloyat Kengashining 2025-yil 26-dekabrdagi VII-17-173-8-0-K/25-son qarori (keyingi o‘rinlarda qaror deb yuritiladi) rahbarlik va ijro uchun qabul qilinsin.

2. Qarorga muvofiq, Qumqo‘rg‘on tuman budjetining 2026 yilgi daromadlari **136 483 750 ming.so‘m** va xarajatlari esa **136 483 750 ming.so‘mga** ma’lumot uchun qabul qilinganligi hamda Qumqo‘rg‘on tuman budjetining shaxsiy g‘azna hisobvarag‘ida turgan budjet mablag‘larining yo‘l qo‘yiladigan eng kam miqdori **386 032 ming.so‘m** etib belgilanganligi inobatga olinsin.

3. Tuman budjeti daromadlarining 2026 yil uchun asosiy prognoz ko‘rsatkichlari 1-ilovaga muvofiq hamda tuman budjetidan 2026 yilda hududiy budjet mablag‘larini taqsimlovchilarga ajratiladigan xarajatlarning cheklangan miqdorlari 2-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

4. Tuman budjeti zaxira jamg‘armasi hajmi 2026 yil uchun **1 739 000 ming.so‘m** miqdorida belgilansin.

Bunda, zaxira jamg‘armasi mablag‘larini amaldagi budjet qonunchiligiga muvofiq, budjet tizimi budjetlari shakllantirilayotganda oldindan nazarda tutib bo‘lmaydigan xarajatlarni, shuningdek ijtimoiy-iqtisodiy beqarorlik yuzaga kelgan vaziyatlarda amalga oshirilishi zarur bo‘lgan tadbirlarni moliyalashtirish uchun yo‘naltirilishi ta’minlansin.

5. Tuman hokimining moliya-iqtisodiyot va kambag‘allikni qisqartirish masalalari bo‘yicha birinchi o‘rinbosari Z.Eshqobilov, tuman Iqtisodiyot va moliya bo‘limi (O.Abdimurodov), tuman soliq inspeksiyasi (B.Turdiyev) bilan birgalikda 2026 yil mahalliy budjeti uchun belgilangan ko‘rsatkichlarni o‘z vaqtida va samarali bajarilishini ta’minlash choralarini ko‘rsin.

6. Hududiy budjet mablag‘larini taqsimlovchilar har chorak yakuni bilan budjet mablag‘larining samarali va maqsadli sarflanganligi, xarajatlarning amaliy natijalari yuzasidan xalq deputatlari tuman Kengashiga hisobot berib borsinlar.

Bunda, hududiy budjet mablag‘larini taqsimlovchilar:

budjetdan ajratilgan mablag‘lardan maqsadli va samarali foydalanish, xususan ish haqi va unga tenglashtirilgan to‘lovlar, oziq-ovqat, dori-darmon, kommunal xizmatlar va davlat dasturlari uchun belgilangan xarajatlarni to‘liq rejalashtirilishi va o‘z vaqtida to‘lanishi;

o‘zlarining va tasarrufidagi tashkilotlarning xarajatlar smetasi va shtat jadvallari hamda daromadlar va xarajatlar smetalarining to‘g‘ri tuzilishi;

budjetdan ajratilgan mablag‘larning maqsadli sarflanishi va maqsadli indikatorlarning to‘liq bajarilishi;

tasarrufidagi tizim tashkilotlariga budjetdan ajratiladigan mablag‘larning to‘g‘ri taqsimlanishi;

o‘z tasarrufidagi tizimda budjet intizomiga amal qilinishi ustidan nazorat qilinishini;

budjet jarayonining ochiqligini ta’minlash maqsadida rasmiy veb-saytlarda ma’lumotlarni joylashtirib borilishini ta’minlasinlar.

7. Mazkur qaror tegishli tahririyatlar va ommaviy axborot vositalarida yoritilishi tavsiya etilsin hamda tuman hokimligining rasmiy veb-saytiga joylashtirilsin.

8. Mazkur qaror bajarilishini nazorat qilish xalq deputatlari Qumqo‘rg‘on tumani Kengashining mahalliy budjet, tadbirkorlikni rivojlantirish va iqtisodiy islohatlar masalalari bo‘yicha doimiy komissiyasi (B.Mamarajabov) hamda tuman hokimining moliya-iqtisodiyot va kambag‘allikni qisqartirish masalalari bo‘yicha birinchi o‘rinbosari Z.Eshqobilov zimmasiga yuklatilsin.

9. Ushbu qaror qabul qilingan kundan e’tiboran kuchga kiradi.

Sessiya raisi **ABDIMUMINOV BAYMURAT XXX**

Xalq deputatlari Qumqo‘rg‘on tumani
Kengashining
2025-yil 30-dekabrdagi
VII-14-139-8-114-K/25 -son qaroriga
1-ilova

Qumqo‘rg‘on tumani mahalliy budjeti daromadlarining
2026-yilgi asosiy prognoz ko'rsatkichlari

ming so'mda

T/R	Daromad turlari	Jami
I.	**Mahalliy soliq va tushumlar**	**136 483 750,0**
1	Yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig‘i	1 397 750,0
2	Aylanmadan olinadigan soliq	7 793 000,0
3	Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i	49 208 960,0
4	Jismoniy shaxslar mol-mulkini ijaraga berishdan daromad solig‘i	853 000,0
5	Qo'shilgan qiymat solig'i	2 404 100,0
6	**Aksiz solig‘i**	**0,0**
	shu jumladan:	0,0
	Yakuniy iste'molchilarga benzin, dizel yoqilg‘isi va gaz realizatsiya qilishdagi aksiz solig‘i	0,0
7	Yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq	4 613 000,0
8	Yuridik shaxslar yer solig‘i	15 744 000,0
9	Jismoniy shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq	10 417 000,0
10	Jismoniy shaxslardan olinadigan yer solig‘i	35 527 000,0
11	Davlat mulki bo‘yicha ijara to‘lovlari	200 000,0
12	Davlat boji	1 940 940,0
13	Jarimalar	2 234 400,0
14	Davlat tashkilotlarining sof foydasidan daromad	0,0
15	Yig‘imlar	693 600,0
16	Noruda qurilish materiallari uchun yer qa'ridan foydalanganlik uchun soliq	30 000,0
17	Davlat mulkini xususiylashtirishdan tushgan tushum	0,0
18	Suv resurslaridan foydalanilganlik uchun soliq	3 427 000,0
	*Ma‘lumot uchun** *Qishloq xo‘jaligi korxonalari suv solig‘ining 40 foizini qaytarish (PQ-5)*	*1 976 406,0*

Xalq deputatlari Qumqo‘rg‘on tumani
Kengashining
2025-yil 30-dekabrdagi
VII-14-139-8-114-K/25 -son qaroriga
2-ilova

2026 yil uchun Qumqo'rg'on tuman mahalliy byudjetidan hududiy byudjet mablag‘lari taqsimlovchilarga ajratiladigan mablag‘larning cheklangan miqdorlari

ming so‘m

№	Hududiy byudjet mablag‘lari taqsimlovchilar nomi	Qumqo‘rg‘on tumani
Xarajatlar miqdori, jami		**136 483 750**
1	Maktabgacha va Maktab ta’limi bo‘limi	*40 700 993*
	shundan:	
	"Mening maktabim"	*5 253 000*
2	Madaniyat bo‘limi	*5 972 443*
3	Yoshlar ishlari agentligining hududiy bo‘limi	*4 395 908*
4	Sport bo‘limi	*4 990 864*
5	Kambag‘allikni qisqartirish va bandlik bo‘limi	*0*
6	Qishloq xo‘jaligi bo‘limi	*3 533 808*
7	Irrigatsiya bo‘limi	*1 408 352*
8	Iqtisodiyot va moliya bo‘limlarini saqlash xarajatlari	*0*
9	Ijtimoiy ximoya milliy agentligining hududiy bo‘limi Ijtimoiy ko‘nikma markazlari xarajatlari	*134 651*
10	Hokimiyat	*58 033 778*
	shundan:	
	Iqtisodiyot va moliya bo‘limi	*3 246 892*
	Kambag‘allikni qisqartirish va bandlik bo‘limi	*2 244 020*
	Madaniyat bo‘limi	*141 611*
	Yoshlar ishlari agentligining hududiy bo‘limi	*425 957*
	Investisiyalar, sanoat va savdo bo‘limi	*329 451*
	Qurilish va uy-joy kommunal xo‘jaligi bo‘limi	*490 218*
	Qishloq xo‘jaligi bo‘limi	*887 802*
	Oila va xotin-qizlar bo‘limi	*281 924*
	Fuqarolar tashabbusi jamg‘armasi	*30 752 313*
	"Mahalla byudjeti" jamg‘armasi mablag‘lari	*1 717 067*
	Zahira jamg‘armasi	*1 739 000*
11	Hokimiyat (O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi)	*1 002 817*
	shundan:	
	O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Xalq qabulxonalarini saqlash xarajatlari	*136 693*
	Axborot-kutubxona markazlari	*866 124*
12	Obodonlashtirish boshqarmasi	16 310 136

13	Boshqa tashkilotlar	0

Xalq deputatlari Qumqo‘rg‘on tumani Kengashining
2025-yil 30-dekabrdagi
VII-14-139-8-114-K/25 -son qaroriga
3-ilova

Soliqlar va yig‘imlardan tumanlar mahalliy budjetga 2026-yil uchun ajratmalar me’yori

Foiz xisobida

Qo'shilgan qiymat solig'i				Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i				Jismoniy shaxslar mol mulkini ijaraga berishdan				Foyda solig‘i			
Tuman (shahar)lar budjetiga		Viloyatning viloyat budjetiga		Tuman (shahar)lar budjetiga		Viloyatning viloyat budjetiga		Tuman (shahar)lar budjetiga		Viloyatning viloyat budjetiga		Tuman (shahar)lar budjetiga		Viloyatning viloyat budjetiga	
Yirik soliq to‘lovchilar	Hududiy soliq to‘lovchilar	Yirik soliq to‘lovchilar	Hududiy soliq to‘lovchilar	Yirik soliq to‘lovchilar	Hududiy soliq to‘lovchilar	Yirik soliq to‘lovchilar	Hududiy soliq to‘lovchilar	Yirik soliq to‘lovchilar	Hududiy soliq to‘lovchilar	Yirik soliq to‘lovchilar	Hududiy soliq to‘lovchilar	Yirik soliq to‘lovchilar	Hududiy soliq to‘lovchilar	Yirik soliq to‘lovchilar	Hududiy soliq to‘lovchilar
0%	25%	100%	75%	0%	64%	100%	36%	0%	100%	100%	0%	0%	25%	100%	75%

alkogol mahsulotlari (pivodan tashqari)		pivo		benzin, dizel yoqilg‘isi va gazni oxirgi iste’molchiga realizatsiya qilishda to‘lanadigan aksiz solig‘i		Yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq	
Tuman (shahar)lar budjetiga	Viloyatning viloyat budjetiga	Tuman (shahar)lar budjetiga	Viloyatning viloyat budjetiga	Tuman (shahar)lar budjetiga	Viloyatning viloyat budjetiga	Tuman (shahar)lar budjetiga	Viloyatning viloyat budjetiga

Yirik soliq to‘lovchilar	Hududiy soliq to‘lovchilar	Yirik soliq to‘lovchilar	Hududiy soliq to‘lovchilar	Yirik soliq to‘lovchilar	Hududiy soliq to‘lovchilar	Yirik soliq to‘lovchilar	Hududiy soliq to‘lovchilar	Yirik soliq to‘lovchilar	Hududiy soliq to‘lovchilar	Yirik soliq to‘lovchilar	Hududiy soliq to‘lovchilar	Yirik soliq to‘lovchilar	Hududiy soliq to‘lovchilar	Yirik soliq to‘lovchilar	Hududiy soliq to‘lovchilar
0%	0%	100%	100%	0%	0%	100%	100%	0%	0%	100%	100%	0%	100%	100%	0%

Foiz xisobida

Yuridik shaxslardan olinadigan yer solig‘i				Qurilish materiallari bo‘yicha yer qa’ridan foydalanganlik uchun soliq				Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq				Davlat ulushi bo‘yicha dividendlar			
Tuman (shahar)lar budjetiga		Viloyatning viloyat budjetiga		Tuman (shahar)lar budjetiga		Viloyatning viloyat budjetiga		Tuman (shahar)lar budjetiga		Viloyatning viloyat budjetiga		Tuman (shahar)lar budjetiga		Viloyatning viloyat budjetiga	
Yirik soliq to‘lovchilar	Hududiy soliq to‘lovchilar	Yirik soliq to‘lovchilar	Hududiy soliq to‘lovchilar	Yirik soliq to‘lovchilar	Hududiy soliq to‘lovchilar	Yirik soliq to‘lovchilar	Hududiy soliq to‘lovchilar	Yirik soliq to‘lovchilar	Hududiy soliq to‘lovchilar	Yirik soliq to‘lovchilar	Hududiy soliq to‘lovchilar	Yirik soliq to‘lovchilar	Hududiy soliq to‘lovchilar	Yirik soliq to‘lovchilar	Hududiy soliq to‘lovchilar
0%	100%	100%	0%	0%	100%	100%	0%	0%	100%	100%	0%	0%	0%	100%	100%

Davlat boji		Jarimalar		Yig‘imlar		Aylanmadan soliq		Jismoniy shaxslardan olinadigan yer solig‘i		Jismoniy shaxslardan olinadigan mol-mulk solig‘i		Davlat mulki bo‘yicha ijara to‘lovlari	
Tuman (shahar)lar budjetiga	Viloyatning viloyat budjetiga	Tuman (shahar)lar budjetiga	Viloyatning viloyat budjetiga	Tuman (shahar)lar budjetiga	Viloyatning viloyat budjetiga	Tuman (shahar)lar budjetiga	Viloyatning viloyat budjetiga	Tuman (shahar)lar budjetiga	Viloyatning viloyat budjetiga	Tuman (shahar)lar budjetiga	Viloyatning viloyat budjetiga	Tuman (shahar)lar budjetiga	Viloyatning viloyat budjetiga

18%	82%	20%	80%	20%	80%	100%	0%	100%	0%	100%	0%	100%	0%

Izoh:

1. Davlat aktivlarini sotishdan mahalliy budjetlarga tushumlar hamda yer uchastkalariga bo‘lgan huquqlarni sotishdan tushgan pul mablag‘lari tuman hamda viloyat budjeti o‘rtasida teng ulushlarda taqsimlanadi.

2. Qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallangan yer uchastkalarini ijaraga berishdan tushadigan (3 450 890, 3 450 891, 3 450 892 daromad kodi bo‘yicha) tushgan pul mablag‘lari tuman budjetiga qoldiriladi.

3. Yirik soliq to‘lovchilar tomonidan to‘lanadigan barcha soliqlar (mol-mulkni ijaraga berishidan olinadigan yillik daromadi to‘g‘risidagi deklaratsiyaga asosan jismoniy shaxslar tomonidan to‘lanadigan daromad solig‘i, soliqsiz tushumlar xamda yuqorida ko‘zda tutilmagan barcha boshqa tushumlar viloyat budjetiga yo‘naltiriladi.